



O'zbekistonda MHXS DAN FOYDALANISH ZARURIYATLARI

Urolova Charos Shavkatovna

O'zbekiston respublikasi Bank moliya

akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etilishi, erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil qilishni zarurat qilib qo‘ymoqda. Hozirgi vaqtda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xo‘jalik subyektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirishga yoo‘naltirilgan buxgalteriya xisobotini tayyorlashda tobora keng foydalanilmoga. Bu holat moliyaviy ma‘lumotlar sifatini oshirish, kapital qiymatini pasaytirish, kapital bozoriga kirishni osonlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: investitsiya, korxona, buxgalteriya, davlat, xalqaro standart, bozor, xalqaro, likvidlik, rivojlanish, samaradorlik.

Annotation: The direct involvement of foreign investments in the economy of our country, the establishment and operation of free economic zones make it necessary to organize accounting on the basis of international standards of financial reporting. Currently, the international standards of financial reporting are increasingly used by economic entities in the preparation of accounting reports aimed at meeting the needs of external users. This situation serves to improve the quality of financial information, reduce the cost of capital, and facilitate access to the capital market.

Key words: investment, enterprise, accounting, state, international standard, market, international, liquidity, development, efficiency.

Bugungi kunda Respublikamiz iqtisodiyotining rivojlantirishda asosiy kapitalga investisiyalarda chet el investitsiya va kreditlarining ulushini ortib borishi juda muhim hisoblanadi, jumladan bu ko‘rsatkich 2022 yilda 42,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2023 yilda 56,7 foizni tashkil etgan va oshib borish tendensiyasiga ega. Xorijiy investisiyalarning o‘sib borishini mamlakatimiz va boshqa davlatlar hamkorligida tuzilgan qo‘shma korxonalar sonining xam ortib borayotganligidan xam bilishimiz mumkin.

Mamlakatimiz yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investisiyalar ishtirokida 4200 dan ko‘proq qo‘shma korxonalar tashkil qilingan. Bu korxonalardan 850 dan ortig‘i Rossiya Federatsiyasiga, 396 tasi Buyuk Britaniya, 242 tasi AQSh, 159 tasi Qozog‘iston, 114 tasi Germaniya va boshqa mamlakatlar investisiyalar ishtirokida





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi [1]. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar va erkin savdo zonalari xajmi ham ortib bormoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tashkil etish va yuritishni talab qiladi.

Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ko‘lami, tarmoq xususiyatlari va yo‘nalishlarini inobatga olgan holda namunaviy tashkiliy-tuzilmani joriy qilish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ochiqligini oshirish, ular tomonidan xalqaro standartlar asosida audit va moliyaviy hisobot axborotini nashr qilish orqali yanada ko‘proq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati yaratiladi [2]. Shu sababli barcha aksiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va Xalqaro audit standartlari hamda Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiq tashqi audit o‘tkazi zarurligi belgtlab berilgan, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi aksiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotini xalqaro standartlarga muvofiq nashr etish yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)ning talablari ko‘plab pozitsiyalari bo‘yicha MHXS talablariga juda yaqinlashtirilgan bo‘lsa-da, lekin boshqa, ba’zan esa asosiy pozitsiyalar bo‘yicha farqlar hamon saqlanib qolmoqda [3]. Jumladan, faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurtituvchi subyektlarning katta qismida mavjud bo‘lgan asosiy vositalar, zaxiralar, nomoddiy aktivlar kabi obyektlarni hisobga olishga nisbatan yondashuvlardagi farqlar saqlanib turibdi. O‘z navbatida, transformatsiya tartibotlarini o‘tkazish chog‘ida aksariyat amaliyotchi buxgalterlar aynan ushbu aktivlarni qayta hisoblashiga to‘g‘ri keladi.

Asosiy vositalar obyektining tannarxi bu tan olish sanasiga ularning pul mablag‘laridagi ekvivalentidir. Agar ular uchun to‘loving oddiy tijorat krediti shartlarida sotishga qaraganda muddati kechiktirilgan bo‘lib, ular 23-sonli BHXSga muvofiq kapitalizastiya qilinmasa, aktivning pul mablag‘laridagi ekvivalenti bilan umumiyl to‘lov o‘rtasidagi farq foiz xarajatlari sifatida kredit davri davomida tan olinadi.

Xulosa

Tadbirkorlik subyekti iqtisodiy rivojlanish uchun xalqaro standartlar asosida buxgalteriya xisobini yuritishi uning aktivlarini haqqoniy bozor qiymatida baholashga shu bilan birga xorijiy investorlarni jalb qilishda asosy rol o‘ynaydi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stat.uz O‘zbekiston respublikasi milliy statistika qo‘mitasi
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 66 b.
3. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O,,quv qo,,llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.

